


# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

9/2024

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu\_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

9/2024

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI**  
**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY**  
**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**Ilmiy-nazariy jurnal**  
**2024, № 9, sentabr**

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

**Elektron manzil:** nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

**Mas'ul kotib:** Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich**, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

**Danova M.**, filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

**Margianti S.E.**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

**Minin V.V.**, kimyo fanlari doktori (Rossiya)

**Tashqarayev R.A.**, texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

**Mo'minov M.E.**, fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

**Mengliyev Baxtiyor Rajabovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Adizov Baxtiyor Rahmonovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Abuzalova Mexriniso Kadirovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Amonov Muxtor Raxmatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Barotov Sharif Ramazonovich**, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

**Baqoyeva Muhabbat Qayumovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Jumayev Rustam G'aniyevich**, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

**Djurayev Davron Raxmonovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Qahhorov Siddiq Qahhorovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Umarov Baqo Bafoyevich**, kimyo fanlari doktori, professor

**Murodov G'ayrat Nekovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**O'rayeva Darmonoy Saidjonovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hayitov Shodmon Ahmadovich**, tarix fanlari doktori, professor

**To'rayev Halim Hojiyevich**, tarix fanlari doktori, professor

**Rasulov Baxtiyor Mamajonovich**, tarix fanlari doktori, professor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Quvvatova Dilrabo Habibovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Axmedova Shoir Nematovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bekova Nazora Jo'rayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Amonova Zilola Qodirovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Hamroyeva Shahlo Mirjonovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Nigmatova Lola Xamidovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Jamilova Bashorat Sattorovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Boboyev Feruz Sayfullayevich**, tarix fanlari doktori

**Jo'rayev Narzulla Qosimovich**, siyosiy fanlar doktori, professor

**Xolliyev Askar Ergashovich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Artikova Hafiza To'ymurodovna**, biologiya fanlari doktori, professor

**Norboyeva Umida Toshtemirovna**, biologiya fanlari doktori, professor

**Hayitov Shavkat Ahmadovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Qurbonova Gulnoz Negmatovna**, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Ixtiyarova Gulnora Akmalovna**, kimyo fanlari doktori, professor

**Rasulov Zubaydullo Izomovich**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Mirzayev Shavkat Mustaqimovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Samiyev Kamoliddin A'zamovich**, texnika fanlari doktori, dotsent

**Esanov Husniddin Qurbonovich**, biologiya fanlari doktori, dotsent

**Zaripov Gulmurot Toxirovich**, texnika fanlari nomzodi, professor

**Jumayev Jura**, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

**Klichev Oybek Abdurasulovich**, tarix fanlari doktori, dotsent

**G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

| <b>MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS</b>        |                                                                                                                  |           |
|-----------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ</b> |                                                                                                                  |           |
| <b>Бушуй Т.А.</b>                                   | Краудсорсинговый словарь туристических терминов                                                                  | <b>4</b>  |
| <b>Фалеева Е.В.</b>                                 | Лексические инновации и их семантические типы в современных словарях английского языка                           | <b>10</b> |
| <b>Xazratova I.F.</b>                               | O'zbek va ingliz tillarida "adolat" konseptining etimologik va kulturologik tadqiqi                              | <b>15</b> |
| <b>Salimova D.F.</b>                                | O'zbek bolalarida yangi so'z o'zlashtirish jarayoni tadqiqi                                                      | <b>19</b> |
| <b>Safarova O.M.</b>                                | Farmatsevtika terminining shakllanishi                                                                           | <b>23</b> |
| <b>Odilova N.N.</b>                                 | Ertak va afsonalardagi mifonimlar va ularning qiyosiy tadqiqi                                                    | <b>28</b> |
| <b>Latifova M.Y.,<br/>Asadov T.H.</b>               | O'tkir Hoshimov asarlaridagi -day/dek affiksli turg'un va erkin o'xshatishlar tadqiqi                            | <b>32</b> |
| <b>Jo'raeva L.J.</b>                                | Navoiy asarlaridagi xalq-urug' nomlarining lingvokulturologik tadqiqi                                            | <b>36</b> |
| <b>Ganiyeva M.</b>                                  | Functional aspects of translation of internet neologisms in english and uzbek                                    | <b>40</b> |
| <b>Faleeva A.V.</b>                                 | Socio-cultural and territorial features of variations in the component composition of english spoken expressions | <b>44</b> |
| <b>Azimova A.O'.</b>                                | Toshpo'lat Ahmad she'riyatidagi milliylikni ifodalovchi til va nutq birliklari haqida                            | <b>49</b> |
| <b>Asadov T.H.,<br/>Saidova X.F.</b>                | O'zbek lug'at qatlamidagi neologik shaxs otlari va ularning tarkibiy-mazmuniiy tuzilish                          | <b>54</b> |
| <b>Turdimurodov S.E.</b>                            | Fe'l evfemik birliklarning til va nutqdagi o'rni                                                                 | <b>59</b> |
| <b>Soatova M.S.</b>                                 | Harbiy diskursning o'ziga xos xususiyatlari                                                                      | <b>64</b> |
| <b>Shamsiddinova S.B.</b>                           | "Gilgamish" eposidagi to'fon qissasi hayot va o'lim ramzi sifatida                                               | <b>70</b> |
| <b>Ruziyeva N.X.</b>                                | Nutqiy muloqotda xushmuomalalik, evfimizm va feysning o'rni                                                      | <b>74</b> |
| <b>Jo'rayeva N.</b>                                 | Evfemizmlar o'zbek ayollari nutqi misolida                                                                       | <b>79</b> |
| <b>Bafoyeva N.A.</b>                                | Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida shaxs nomlari tarkibida qo'llangan qo'shimchalar tahlili            | <b>83</b> |
| <b>Ashurova M.S.</b>                                | Rasmiy uslubning ichki turlari, rasmiy matnlarga xos xususiyatlar va ularning vazifalari                         | <b>87</b> |

|                                                                       |                                                                                                                                            |            |
|-----------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>Abdukodirova Y.S.</b>                                              | O'zbek lingvomadaniyatida maqollar o'rganilishining nazariy jihatlar                                                                       | <b>94</b>  |
| <b>Абзаиров Т.Ю.</b>                                                  | Фонетическая компетентность для изучения русского языка как иностранного                                                                   | <b>98</b>  |
| <b>Туйлиева Л.А.</b>                                                  | Системные отношения в лексико-семантической группе глаголов, называющие биологическое состояние (на материале современного русского языка) | <b>104</b> |
| <b>Saparbayeva L.S.</b>                                               | Reklama matnlarida alluziyaning madaniy xususiyatlari                                                                                      | <b>111</b> |
| <b>Nashirova Sh.B.</b>                                                | Ways of lexicographic semantization of polysemic words in english-uzbek and uzbek-english dictionaries                                     | <b>116</b> |
| <b>Ахмедова С.Қ.</b>                                                  | “Победа” переименование пайдо бўлиш ва қўлланилиш тарихи                                                                                   | <b>121</b> |
| <b>Туйлиева Л.А.</b>                                                  | Анализ парадигматических свойств лексико-семантической группы глаголов биологического состояния узбекского языка                           | <b>125</b> |
| <b>ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ</b> |                                                                                                                                            |            |
| <b>Hayitov Sh.A.</b>                                                  | “Yusuf va Zulayho” Hilola Safarova talqinida                                                                                               | <b>132</b> |
| <b>Khalikova D.Sh.</b>                                                | The creative portrayal of the female figure in english and uzbek literature                                                                | <b>144</b> |
| <b>Xo'jayeva X.K.</b>                                                 | “Oshiq Mahmud” dostonining o'rganilish tarixidan                                                                                           | <b>149</b> |
| <b>Yaxshiyeva Z.R.</b>                                                | Amir Temur haqidagi asarlarda hayot haqiqati va badiiy to'qima                                                                             | <b>153</b> |
| <b>Палуанов Б.Н.</b>                                                  | Ибрайим Юсупов ижодида бадий публицистика                                                                                                  | <b>158</b> |
| <b>O'roqova N.Y.</b>                                                  | Xalq lirik qo'shiqlari va mumtoz she'riyatda qush obrazi talqini                                                                           | <b>162</b> |
| <b>Xamroyeva D.J.</b>                                                 | Abdulla Sher ijodida dostonning o'rni                                                                                                      | <b>168</b> |
| <b>Xolmanova Sh.Q.</b>                                                | «Bovary xonim» va «Hayot» romanlarida ayollar obrazining ifodalanishi                                                                      | <b>173</b> |
| <b>Soliyev E.M.</b>                                                   | Qur'on ilmining vujudga kelishi                                                                                                            | <b>178</b> |
| <b>Sadullayeva M.</b>                                                 | Hikoyada peyzaj tasviri va unda ruhiyat ifodasi                                                                                            | <b>183</b> |
| <b>Kadirova N.A.</b>                                                  | Peculiarities of transformation motif in uzbek written fairy tales                                                                         | <b>186</b> |
| <b>Рахматова М.М.,<br/>Исмаилова С.Н.</b>                             | Формирование национально-культурного наследия в путевых заметках джадидов                                                                  | <b>192</b> |
| <b>Ахмедова Ш.Н.,<br/>Исаева Г.А.</b>                                 | Героизм и внутренние конфликты в романах «Горячий снег» Ю.Бондарева и «Годы в шинелях» Шухрата                                             | <b>197</b> |

### XALQ LIRIK QO'SHIQLARI VA MUMTOZ SHE'RIYATDA QUSH OBRAZI TALQINI

**O'roqova Nafosat Yoriyevna,**

Buxoro davlat universiteti dotsenti

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

[n.y.uroqova@buxdu.uz](mailto:n.y.uroqova@buxdu.uz)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada badiiy-estetik tafakkur rivojida asosiy rol o'ynovchi obraz, ramz kabi tushunchalarga urg'u berilgan. Olamning badiiy manzarasini ifodalashda qush obrazlari muhim o'rin tutadi. Xalq og'zaki ijodi hamda mumtoz lirika namunalari misolida ushbu obrazning genezisi va tadrijiy taraqqiyoti o'rganildi. Ularga xos alohida xususiyatlar tadqiq qilindi. Ibtidoiy animistik dunyoqarashga asosan turkiy xalqlar ayrim qushlar kultiga ham sig'inishganligi hamda qush obrazlari parallelizmni yuzaga keltirishda eng ko'p qo'llanadigan obrazlardan biri ekanligi dalillandi. Mumtoz she'riyatda qushlarning tasavvufiy, ramziy-timsoliy mohiyat kasb etganligiga diqqat qaratildi.

**Kalit so'zlar:** badiiy adabiyot, obraz, qushlar obrazi, ramziy ma'no, animistik dunyoqarash, qush kulti, motiv, mifologik inonch, xalq lirikasi, mumtoz she'riyat, afsonaviy qushlar.

### ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ПТИЦЫ В НАРОДНЫХ ЛИРИЧЕСКИХ ПЕСНЯХ И КЛАССИЧЕСКОЙ ПОЭЗИИ

**Аннотация.** В данной статье особое внимание уделяется таким понятиям, как образ и символ, которые играют ключевую роль в развитии художественно-эстетического мышления. Изображения птиц играют важную роль в выражении художественного ландшафта мира. Генезис и постепенное развитие этого образа изучались на примере фольклора и классической лирики. Изучены их особенности. На основе первобытного анимистического мировоззрения доказано, что тюркские народы также поклонялись некоторым культам птиц и что изображения птиц являются одними из наиболее используемых образов для создания параллелизма. В классической поэзии обращалось внимание на то, что птицы приобрели мистическую, символическую сущность.

**Ключевые слова:** художественная литература, образ, образ птиц, символическое значение, анимистическое мировоззрение, культ птицы, мотив, мифологическое верование, народная лирика, классическая поэзия, мифические птицы.

### INTERPRETATION OF THE IMAGE OF A BIRD IN FOLK LYRIC SONGS AND CLASSICAL POETRY

**Abstract.** This article emphasizes concepts such as image and symbol, which play a key role in the development of artistic and aesthetic thinking. Images of birds play an important role in expressing the artistic landscape of the world. The genesis and gradual development of this image was studied on the example of folklore and classic lyrics. Their special features were studied. Based on the primitive animistic worldview, it was proved that the Turkic peoples also worshiped some bird cults and that bird images are one of the most used images to create parallelism. In classical poetry, attention was drawn to the fact that birds have acquired a mystical, symbolic essence.

**Keywords:** fiction, image, image of birds, symbolic meaning, animistic worldview, bird cult, motif, mythological belief, folk lyric, classical poetry, mythical birds.

**Kirish.** Badiiy adabiyotda qushlar obrazi genezisi bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda qushlarga xos xususiyatlar va ularning badiiy adabiyotdagi ifodasi, qadimgi xalqning qushlarga munosabati, ular ifodalagan ramziy ma'nolar yoritilayotir. Turkiy xalqlar lirikasida tovuq, o'rdak, g'oz, xo'roz kabi parrandalar hamda kabutar, bulbul, lochin, qaldirg'och, to'rg'ay, qarchig'ay, chumchuq, kaklik, qarg'a, to'ti singari qushlar obrazlari parallelizmni yuzaga keltirishda eng ko'p qo'llanadigan obrazlardir. Adabiyotda ko'p qushlar tinchlik-xotirjamlik, erkinlik, farovonlik ramziy ma'nolarini ifodalab keladi. Bundan tashqari, ularning har biri o'ziga xos ko'chma ma'nolarda ham talqin qilinadi. Xususan, kabutar – tinchlik-xotirjamlik; bulbul – oshiqlik; qaldirg'och – sadoqat, fidoyilik; lochin – mardlik; qarg'a – yovuzlik,

musibat; to‘ti – donolik va mahmadanlik; chumchuq – chaqimchilik ramzi sifatida obrazlar olamini boyitishda ulkan ulush qo‘shayotir.

**Asosiy qism.** Ibtidoiy animistik dunyoqarashga asosan turkiy xalqlar ayrim qushlar kultiga ham sig‘inishgan. “Qadimda marhumlar jasadini qushlarga yem qilish yo‘li bilan ruhni qushlarga ko‘chirish, shu orqali uni o‘liklar olamiga jo‘natish ko‘zda tutilgan. Ruhi qushga ko‘chirilgan marhum zoomorf qiyofada qayta tiriladi-yu, abadiy hayotga erishadi, deb tushunilgan. Marhumlar ruhini qush qiyofasida qayta tiriladi deb qarash qushlarga nisbatan xalqning e‘tiqodiy munosabatda bo‘lishiga olib kelgan. Hatto hozirgacha shu qarashlar asosida mo‘zorishtonga ziyoratga borganlar o‘zlari bilan bug‘doy, guruch, makkajo‘xori, arpa kabi donli ekinlardan olib borib, uni qabr ustiga sepish odati saqlanib kelayotir” [5, 328]. Demak, xalq qo‘shiqchilarida qo‘llangan qushlar obrazi genezisiga ko‘ra juda qadimiy bo‘lib, inson va unung xarakter-xususiyatiga parallel ravishda kela oladigan obrazlar safida turadi.

**Natijalar va muhokama.** O‘zbek xalq og‘zaki ijodida kaptar (kabutar) bilan bog‘liq e‘tiqodiy inonchlar kuzatiladi. Folklor asarlarida kaptar tinchlik, osoyishtalik, go‘zallik, xotirjamlik, farovon hayot hamda jon ramzi sifatida talqin etiladi.

“Yurak duk-duk urmiymi?” xalq qo‘shig‘ida kaptar obrazi orqali oshiq yigitning kechinmalari, his-tuyg‘ulari ochiq-oshkor ifodalangan. Bunda kaptar go‘zal va qaddi raso yor siymosiga ishora qilgan:

Ulli yo‘lda ikki kaptar o‘yniydi,  
Sendan boshqa yora ko‘nglim urmiydi.  
Sendan boshqa yora ko‘nglim urganda,  
Hech qaysisi o‘zginangga turmiydi [12, 62].

Mifologik inonchlarga ko‘ra, kaptar ayol jinsidagi ma‘budalar bilan aloqador tarzda talqin qilinadi. El orasida tarqalgan afsona va rivoyatlarga quloq tutadigan bo‘lsak, ularda parilarning kaptarga aylanish jarayoniga guvoh bo‘lamiz. Shu jihatga asoslanib, ularga ozor berish, o‘ldirish, tuzumchalarini olish yoki bolachalarini qiynash gunohi azim hisoblanadi. Bu jajji qushning qarg‘ishi kuchli bo‘ladi, unga ozor bergan dilozorlarning ham biror kulfatga muhtalo bo‘lish ehtimoli yuqoridir. O‘zbeklar orasida, xususan, ko‘k rangli kaptar alohida ulug‘lanadi. Xalq dostonlari va afsonalarida ham kaptarlarning bir yumalab pari qizga aylanishi lavhasi talaygina.

Qoshi qora, yuzi oqni,  
Men yori bo‘lsam kerak.  
Ko‘kkina kaptar bo‘lib,  
Ko‘ksida jon bersam kerak [12, 254].

Ushbu parchada kaptar jon ramziy ma‘nosini ifodalab kelgan. Mifologik qarashlarga ko‘ra, bu qush, asosan, jon suratida ham gavdalanadi. Buning isboti o‘laroq, xalq dostonlari, afsona va rivoyatlarida jonning kaptar ko‘rinishida namoyon bo‘lishini ta‘kidlash lozim. Shuningdek, u jon oluvchi go‘zallik timsoli bo‘lib ham suvratlanadi.

“Eshik oldi gulhovuz” xalq aytimida insonga do‘st sanaluvchi, o‘zbekning milliylik ramzini ko‘rsatuvchi qush – qaldirg‘och xususida so‘z boradi. Bahor kelishi bilan, uning ilk qadamlarini qutlovchi ushbu xokisor qush badiiy adabiyotda do‘stlik, sabr, xokisorlik ma‘nolarini tashiydi. Bahor bilan birga o‘zbek xonadonini nurga, fayz-barakaga to‘ldirib kelishi jihatidan ota-bobolarimiz qaldirg‘ochni muqaddas bilganlar. Qaldirg‘och makon tutgan uy – eng baxtli xonadon qatorida e‘zozlangan. Ularga uylarining to‘ridan joy ajratib, bola ochib chiqquncha bezovta qilmaganlar. Kimda-kim qaldirg‘och inini buzsa, bolalarini o‘ldirsa, uni buyuk qarg‘ish tutishiga ishonganlar. Shu e‘tiqodga asoslanib yozilgan qator badiiy asarlar, lirika namunalari buning dalilidir. Bu inonch esa bizda bobomeros aqida hisoblanadi:

Qaldirg‘och qaro bo‘lur,  
Qanoti alo bo‘lur.  
Yoshlikda bergan ko‘ngil

Ayrimlas balo bo‘lur [12, 219].

Yuqoridagi misralarda qaldirg‘ochning tashqi ko‘rinishi: uning rangi qoraligi, qanotining olaligiga diqqat qaratilgan. Yoshlikda ko‘ngildan kimningdir joy egallashi, ya‘ni qalbning mehr-muhabbatga to‘lishi bilan bog‘liq muqaddas tuyg‘ular muqaddas qush bilan parallel tarzda qo‘yilgan.

Qadimiy “Yor-yor” qo‘shiqlarida esa qizning qoshi qaldirg‘ochga qiyoslangan. Bunda ikki jihat e‘tiborga olingan: 1. Qaldirg‘och qanotining qayrilmaligi. 2. Qaldirg‘och rangining qoraligi.

Qaldirg‘och qanotiday  
Qoshlik singlim, yor-yor [12, 374].

Ko‘rinadiki, mazkur qush turkiy xalqlarda qadimdan ulug‘langan va uni muqaddaslashtirishga asos bo‘luvchi fazilatlarini yetarlichadir. Bunga, eng avvalo, uning inson zotiga do‘stligi, sabr va mehr bilan bolasini ulg‘aytirishi, yaxshilik ulashishi, xonadonlarga fayz-baraka, baxt olib kirishi tilga olinadi.

Yana bir faol qo‘llanuvchi qush obrazi to‘tiqush bo‘lib, ham ijobiy, ham salbiy ma‘no tashiydi. U, bir qarasangiz, donolik, boshqa vaziyatda esa mahmadanalik ramzini tashiydi:

To‘tiqushning bolasidek  
Ikkalamiz intizor... [12, 46]

Yoki:

Bir qiyo boqdim – tutildim,  
To‘tining zanjiriga.  
Hech iloj topolmadim  
Parvardigor taqdiriga [12, 111].

Bunda birinchi lirik to‘rtlik o‘sha mashhur “Qarg‘alar” qo‘shig‘i tarkibidan joy olgan. Mazkur qo‘shiq tarixi juda ayanchli bo‘lib, u o‘zbeklarning shonli va qonli tarixidan so‘zlaydi. Lirik qahramon o‘zi hamda mard vatandoshini to‘tiqush bolalariga qiyoslamoqda. Polaponlarning onalarini kuta-kuta intizor qolishlari kishiga noxush kayfiyat bag‘ishlaydi. Bunda noilollik tufayli ikki qutbning o‘z niyatiga yetolmayotganidan tuyilgan alam aks etgan.

Ikkinchi lirik to‘rtlikda asosiy qahramon bilan bog‘liq vaziyatda to‘tiqush obrazi biroz salbiy bo‘yoqdorlik xususiyatiga ega ekanligi ko‘rinadi. Ya‘ni bir nazar tashlaboq to‘tisifat (istalmagan) insonning to‘riga ilinish taqdirda bor bo‘lganligi talqini keltirilgan. Demak, xalq lirikasi misolida to‘tiqush ramz-obrazining yana ko‘plab ma‘no qirralarini kashf etish mumkin degan xulosaga kelsak, mubolag‘a bo‘lmas.

Olamning badiiy manzarasini ifodalashda bulbul obrazi keng yoyilgan timsollar safida turadi. Badiiy adabiyotning barcha adabiy tur va janrlarida uchraydigan mazkur obraz o‘z mazmun-mohiyatidan tashqari bir qancha ramziy ma‘no hamda motivlarni ifodalab keladi. Ko‘pincha, u yor va uni orzulagan oshiq yigit timsoli bilan parallel qo‘yiladi. Bulbul obraziga yondosh obrazlar sifatida gul, bog‘, chamanzor, tikan motivlari ishlatiladi. Ular esa qo‘shilib, birgalikda tanosub badiiy san‘atini yuzaga chiqaradi:

Bog‘laringda toza gullar ochilmish,  
Kel, Zuhrajon, bog‘ sayliga ketaylik.  
Bulbullar mast bo‘lib, shabnam sochilmish,  
Yur, Zuhrajon, bog‘ sayliga ketaylik [12, 314].

“Bog‘ sayliga ketaylik” xalq qo‘shig‘ida bog‘ – xonadon, toza gul – bokira qiz, bulbul esa balogatga yetga oshiq yigit ma‘nosida kelgan bo‘lib, ushbu timsollar misrani poetik jihatdan boyitgan.

Yuqorida qisman tilga olganimiz “Qarg‘alar” qo‘shig‘ining yaralish tarixi marg‘ilonliklarning Chor Rossiyasiga qarshi kurashi bilan bog‘liq. Xalqning qonli va qayg‘uli davrlarini o‘zida mujassam etgan ushbu xotira-qo‘shiqda qar‘ga obrazi falokat, musibat motivini anglatib kelgan:

Qarg‘alar uchsa, qaraylik  
Marg‘ilonning yo‘liga.  
Hidi kelsa, mast bo‘laylik  
Handalakning bo‘yiga [12, 46].

Xo‘roz – parrandalar turkumiga kiruvchi eng faol qo‘llanadigan poetik obrazlar qatorida turadi. “Alla” va dehqonchilik bilan bog‘liq lirik qo‘shiqlarda ko‘makchi obraz sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Binobarin, bunda tun bilan tong orasidagi masofa inobatga olingan holda lirik vaziyat yaratiladi:

Uyimizning oldi gilos,  
Gilosdan men oldim biroz,  
Yana qichqirdimi xo‘roz?  
Uxla, qizim, uxla [4, 104].

Qadimiy e‘tiqodga ko‘ra, xo‘roz dono va tadbirkor insonlar sifatini o‘zida namoyon etgan. Yuqoridagi misralarda ham buning isbotini ko‘rish mumkin. Ya‘ni tun bilan tong oralig‘i nazoratini belgilash xo‘rozning zimmasida go‘yo. U tunning ma‘lum bir qismlarida uch marta qichqiradi. Va shundan so‘ng, qarabsizki, tong otadi. Deyarli barcha allalarda xo‘roz obrazi bor. Uning ilk qichqirig‘i yarim tunga to‘g‘ri keladi. Mazkur nomning tilga olinishi onaning o‘z bolasini tezroq uxlashga da‘vat qilishi bilan dalillanadi.

Mumtoz adabiyotimiz, xususan, she‘riyatda eng ko‘p qo‘llanadigan obrazlar jamlanmasi ham, albatta, qushlardir. Qush atamasi “Navoiy timsollari so‘zligi”da quyidagicha izohlangan: “Qush – 1. mif. a. Ruh. b. Quyosh. d. Shamol. e. Erkinlik. f. Hayot. g. Xayol. h. Tush. i. Nafas. j. Elchilik. 2. tas. a. Jon. b. Ko‘ngil [1, 171]. Demak, she‘riy asarlarda kelgan qush obrazi o‘z ma‘nosidan tashqari majoziy, mifologik hamda tavavvufiy mazmun-mohiyatni ham tashiydi. “Badiiy adabiyotda, xususan, majozni faqatgina metonimiya,

istoria, metafora, allegoriya kabi vositalar natijasida hosil bo'lgan so'z va so'z birikmalari tashkil etmaydi. Majoz vositalari asosida badiiy adabiyotda butun bir yaxlit asarlar yaratish an'analari mavjuddir" [7, 48]. Buni lirik asar matnida ifodalangan tasvir yo'nalishidan aniqlab olish mumkin. Qush obrazi haqida gap ketar ekan, Navoiyning to'laligicha majoziylik qununiyati asosida yozilgan "Lison ut-tayr (Qush tili)" dostonini chetlab bo'lmaydi. U Fariddin Attorning xuddi shunday uslubda bitilgan "Mantiq ut-tayr" dostoni ta'sirida yaratilgan. Navoiyning falsafiy ruhda yozilgan dostonida obrazlarning barchasi qushlar: Simurg', Hudhud, To'ti, Tovus, Bulbul, Qumri, Kabutar, Kabki dariy (Tog' kakligi), Tazarv, Qarchig'ay, Shunqor, Burgut, Kuf (Boyo'g'li), Humoy, O'rdak, Tovuq (Xo'roz). Ular majoziy obraz sanaladi. Qushlarning turfa sarguzashtlari ortiga shoir o'zining tasavvufiy qarashlarini singdirgan.

Kim qilib Simurg' o'ttuz qush havas,  
O'zlarin ko'rdilar ul si murg'u bas.  
Munda zohir bo'ldi sirri «man araf»,  
Kim ko'rubtur gavhar o'lmog'lig' sadaf [2, 300].

Unda insonning o'zi eng ulug' yaratiq, muqaddas xilqat ekanligi e'tirof etilgan. Hayotda, eng muhimi, insonning o'zini o'zi anglashi, qalban, ruhan tozarishi g'oyalari dostonidan chiqarilgan asosiy va so'nggi xulosa tarzida yangraydi.

"Lison ut-tayr" falsafiy dostonidagi turli ilmiy masalalar qatorida qushlar obrazini adabiyotshunos olimlardan E.Bertels, N.Komilov, I.Haqqul, Sh.Sharipov, S.Olim, M.Imomnazarov, Z.Mamadaliyeva, Y.Is'hoqov, D.Yusupovalar tadqiq qilganlar. Shu bois bu mavzuni keng yoritishni, asarga chuqurroq munosabat bildirishni lozim topmadik.

Mumtoz she'riyatimizda jon qushi, g'am qushi, ko'ngil qushi, mehr qushi singari birikmalarga tez-tez duch kelamiz:

Bobur, ul gul zulfi ostinda emasdur xollar,  
Jon qushin sayd aylar uchun donalardur domida [3, 18].  
Yoki:

Oldi ko'ngul qushlarin har lahza mushkin turrasi,  
Boli shohindurki, sayd aylarda tarrori ajab [10, 54].

Ma'lumki, tasavvuf ta'limotiga ko'ra, qush obrazi jon hamda ruhga tenglashtiriladi. So'fiy insonning tani qafasga, ruhi qushga mengzaladi. O'lim tufayligina badan qafasdan qutilib, ruh Arshga parvoz etmog'i, boqiy olamga safar qilmog'i mumkin.

Yig'di to xoshok selobi sirishkim boshima,  
Tutti har yondin kelib g'am qushlari anda yuvo [10, 49].

Nodira qalamiga mansub mazkur baytdagi "g'am qushi" dunyoviy qayg'ular, o'tkinchi tashvishlarni anglatib kelgan. Yuvo – qush uyasi. Bunda esa lirik qahramonning qalbi ma'nosida gavdalangan. Tilga olingan barcha birikmalar istoria san'atining betakror va go'zal namunasi hisoblanadi.

Lirikada keng qo'llanuvchi majoziy obrazlardan yana bir qanotli jonzot – bulbul. U chumchuqsimonlar turkumining qorayaloqlar oilasiga mansub sayroqi qush. O'zining yoqimli ovozi bilan har qanday ko'ngilni sehlash qobiliyatiga ega. U qadimgi manbalardan tortib hozirgi adabiy jarayonda ham ma'shuqa ko'nglini ovlashga bel bog'lagan oshiq ramzini gavdalandiradi.

Folklor janrlariga qaraganda mumtoz she'riyatimizda bulbul obrazi faollashdi. Har bir ijodkor asarida unga duch kelishimizning o'ziyoq bu mulohazamizni tasdiqlaydi:

Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,  
Aylamas to'ti takallum shakkaristondin judo [11, 91].

Mutafakkir Navoiyning hayratangiz she'riyati go'yo bir ma'naviy xazina. Olti asrdan buyon uning hayratlari dunyo kezmoqda. Yuqoridagi baytda shoir bulbul bilan to'ti obrazini yonma-yon tasvirlaydi. Ya'ni ikkalasining navo qilishi, yayrab sayrashi uchun ozod muhit zarur ekanligini uqtiradi. Bulbul guliston bilan, to'ti shakkariston bilan tirik, go'yasini ilgari suradi. Bulbulga guliston nega kerak? Chunki unda gul o'sadi. Bu, o'z navbatida, uzviylikni ta'min etadi:

Boburo, hargiz quloq she'ring'a ul gul solmadi,  
Gulga ne parvoki yuz faryod qilsa andalib [3, 19].

Bobur ijodidan keltirilgan bu baytda bulbulning ikkinchi shakliy ko'rinishi qo'llangan. Mumtoz lirikada bunday variant qabul qilingan bo'lib, u takrorning oldini olishga xizmat qiladi.

Ey gul, aylarsan jafu xorin urub, Munisg'a javr,  
Andalibi dilkash, ilhoning kerakmasmu sanga [9, 10]?

Munisning "Sanga?" radifli g'azalida shu holat takror keladi. Andalib va bulbul so'zlari bir-biriga sinonim bo'lib, sinonimik qatorni hosil qiladi. Har ikki nom ostida ovozining go'zalligi bilan mashhur bir

qushni ko'ramiz. Mazkur obrazning mumtoz lirikamizda tutgan o'rni beqiyos. An'anaviy oshiq timsolini gavdalantrishi jihatidan muhim ahamiyatga molikdir.

Bundan tashqari, klassik janrlardagi chug'z (boyo'g'li) obrazi ham e'tiborni tortadi. U vayronalarda yashashi bilan ajralib turadi. Asosan, kechqurun sayraydi. Ovozining xunukligi kishida salbiy emotsiya qo'zg'aydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, mifologik dunyoqarashga asosan, uning sovuq sayrash ortidan biror falokat sodir bo'lishi taxmin qilinadi.

Chug'z bo'lmish ganji vasling shavqidin ko'nglum qushi,  
Zaxmi ko'p ko'nglum uyi ul chug'zning vayronidur [11, 12].

Yoki:

Bulbul aylar nolalar yolg'iz dema, ey gul'uzor,

Cho'g'zdek qilgay Muqimiy ham navo vayronada [8, 53].

Boyog'lini boyqush nomi bilan ham atashadi. U haqda xalq orasida turli afsona va rivoyatlar yuradi. Boyog'li donishmandlik va zakovat sohibi sifatida majoziy ma'no tashiydi. Ayrim asarlarda esa u xuddi ilon singari xazinani qo'riqlovchi ramzida gavdalanadi.

Birinchi lirik parchada Navoiy mahoratiga ko'ra boyo'g'lidani tuyiladigan ikki his ifodalangan. Birinchi misrada lirik qahramon yor vasliga erishish haqidagi ko'nglidan kechirgan xayollarini xazina sanab, unga chug'zni qo'riqbon sanaydi. Ikkinchi misrada unga teskari ravishda alamzada ko'nglini chug'zning vayronasiga o'xshatadi.

Muqimiy esa, o'zini vayronada navo qiluvchi chug'zga tenglashtiradi. Tasavvufiy istiloh sifatida "boyqush/chug'z – ilohiy sirlarga erishgan komil inson, vayrona – xush ko'rilgan darbadar darvesh, ahli xarobot [1, 40]". Darhaqiqat, tasavvufiy atamalarining jilosi turlicha. Ularni anglash, baytning mazmun-mohiyatiga yetib borish uchun cheksiz mashaqqat talab etiladi.

Boyqush kabi salbiy emotsiya uyg'otuvchi qushlar orasida zog' ham bor. Uning o'ziga xos turmush tarzi boshqa qushlardan ajralib turishiga asos bo'ladi. So'zlashuv uslubida, xalq tili bilan aytganda, uni qarg'a deb atashadi. Majoziy ma'noda raqib obrazini ifoda etadi. Ayrim payt xarakter-xususiyatidan kelib chiqqan holda shayton, yovuzlik, jaholat motivlarini ham tashiydi:

O'lsa xoriston, ne tong, bechora bulbulg'a vatan –

Kim, jahon bog'ida yer yo'qtur hujumi zog'siz [9, 161].

Bunda bulbul-zog' qarama qarshi qo'yilib, zid ma'noni chiqarib berishda foydalanilgan. Antonim badiiy sana'tining maydonga kelishida bu zidlik yetrali sanalgan. Xoriston-bog' so'zlari ham ushbu safni to'ldirib turibdi. Ular hammasi, o'z navbatida, tanosubni ham hosil qilib, baytning badiiy qimmatini oshirishda beqiyos hissa qo'shgan.

O'zbek xalq og'zaki va yozma manbalarida uchratganimiz shunday qush obrazlari borki, biz real hayotda ularni hech qachon ko'rmaganmiz. Ular haqiqatda bormi-yo'qmi, bunisi ham bizga qorong'u. Ammo xalq orasida bu qushlar haqida turli afsona va rivoyatlar kezib yuradi.

Mashrabning sodda, ravon uslubda yozilgan "Ishqingda o'ldum" radifli g'azalida afsonaviy qushlardan qaqnus tilga olingan:

Qaqnusga o'xshab nola qilurman,

O'rtandi jonim, ishqingda o'ldum [6, 59].

Bu qush o'zining kuchli nolasi bilan boshqa qush va hayvonlarni hayratga soladi. Uning nomi "Lison ut-tayr" da ha uchraydi. O'limidan oldin "qanotidan o't chaqnab chiqadi, keyin butun vujudini o't qoplab yona boshlaydi, olov o'tinlarga o'tadi va birga-birga yonib cho'g'ga aylanadilar. Keyin cho'g'lar sovib kul bo'ladilar. Kul ichida bitta kichkina cho'g' qoladi va u kichkina qaqnus bo'lib dunyoga keladi" [13].

Yana bir mo'jizaviy qush – samandardir. Afsonaga ko'ra, u olov ichida tug'ilib, olov ichida yashaydigan, rangi ham olovrang jonivor. Olovda yonuvchi bu qush otashin ishq ramzi bo'lib, visol yo'lida oshiqni yoqib kul qiladi.

Emasmen ishqidin ayruki, bo'lmas

Samandar otashi so'zondin ayru [9, 79].

Munis qalamiga mansub baytda u tasavvufiy istiloh bo'lib kelgan. Lirik qahramon ma'shuqa ishq o'tida kuyganini samandar holati bilan parallel qo'yadi.

Bog'larda, oromgoh hamda sihat yerlarida ko'zimiz tushsa, yaqqol diqqatimizni jalb qiluvchi qush – tovus. U o'zining yorqin jozibasi – tashqi go'zalligi, chiroyli patlari bilan ko'ngillarni maftun aylaydi. Sallamno yurishlari ma'shuqaning ohista va jilvakor qadam tashlashiga qiyoslanadi.

Yuzung ko'rmakka doim muntazir nargiz bila gulzor,

Xirom et bog' aro tovusvor ohista-ohista [8, 57].

Ogahiy lirik xazinasining yuksak namunasi bo'lgan bu baytda yuqorida ta'kidlaganimiz g'oya ilgari surilgan. Nargis bilan gulzor yorning bog'da to'vusvor xirom aylashiga muntazir. Uning rango-rang tuslanib kiyingani, zeb berilgan qaddi-qomati to'vusning yorqin bo'yoqli patlari bilan uyg'un. Zero, ma'shuqa to'vus kabi yurishni qoyillatib, oshiqclarini kuydirishda davom etayotir. Misralarda qo'llangan nargis, gulzor, yuz, bog', to'vus poetik obrazlari olamning badiiy manzarasini yorqin bo'yoqlarda ifodalash uchun xizmat qilgan.

Mumtoz janrlarda oz bo'lsa-da, xuffosh obrazini uchratamiz. U hozirgi o'zbek tilida ko'rshapalak deb ataladi. O'z nomi bilan ma'lumki, uning ko'zlari ko'rmaydi. Biroq haddan ortiq kuchli sezgiga ega.

Har kimki bo'lsa bebasar ul yuz ziyosidin qochar,


Ul nav'kim, tushkach quyosh anvori xuffosh ustina [9, 126].

Ogahiyning "Ustina" radifli g'azalida xuffosh tasavvufiy mazmun-mohiyat kasb etgan. Zuhd so'fiy [1, 251] ramzini gavdalantirgan. Tasavvufiy dunyoqarashga asosan, kimki dunyodan parhez etsa, uning qalbi tajalliyot nuri kiradigan joyga aylanadi. Baytdagi yor ALLOHga, quyosh anvori esa HAQ ziyosiga ishora qiladi.

**Xulosa.** Demak, olamning badiiy manzarasini ifodalashda qush obrazlari adabiy-badiiy asar tarkibida inson obrazlari bilan hamisha yonma-yon tasvirlanib kelingan. Mazkur obrazning individual xususiyatlari, ular ifodalaydigan ramziy ma'nolar, nafaqat xalq qo'shiqlari tarkibidan joy olgan, balki buyuk mutafakkir allomalar, mumtoz she'riyat vakillari e'tiboridan ham chetda qolmagan. Ular she'riy asarlarida ilgari surgan g'oyalarning aniq va tushunarli bo'lishi, tuyg'ularning teranroq ifodalanishi, yondosh obrazlarni yorqinroq tasvirlash uchun hamisha faunistik obrazlarga ehtiyoj sezganlar.

### ADABIYOTLAR:

1. Avaznazarov O. Navoiy timsollari so'zligi. – T.: Spectrum Media Group, 2024.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн иккинчи том. Лисон ут-майр. – T.: Фан, 1996.
3. Бобур. Девон. –T.: Фан, 1994.
4. Энг сара аллалар. Наирга тайёрловчи Абдумурод Тулаов. – T.: Адабиёт учқунлари, 2017.
5. Jo'rayev M., O'rayeva D. O'zbek mifologiyasi. – T.: O'qituvchi, 2019.
6. Mashrab: she'rlar/nashrga tayyorlovchi M. Kenjabek. – T.: Akademnashr, 2020.
7. Мирзоҳидова Л.Б. XI-XII асрлар туркий адабиётида мажозий тасвир бадийати. Фил.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. авт.-ти. Самарқанд – 2018.
8. Muqimiy. Ikki tomlik asarlar to'plami. 1-tom. Lirika. – T.: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960.
9. Mushkin qoshining hay'ati: Munis, Ogahiy/to'plovchi va so'zboshi muallifi E.Ochilov. – T.: O'zbekiston, 2015.
10. Nodira-Komila. Devon. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
11. Orazin yopqach ko'zumdin: g'azallar, qit'alar, ruboiylar, tuyuqlar, fardlar/Alisher Navoiy. So'zboshi, izohlar muallifi va to'plab nashrga tayyorlovchi M. Abdulxayr. –T.: Zabardast media, 2023.
12. Шоода-шоода марварид: Ўзбек халқ қўшиқлари. – T.: Шарқ, 2006.
13. Қажнус умрининг узунлиги ва унинг аҳволи ҳикояси. <https://ziyouz.uz/hikmatlar/ibratli-hikoyatlar/a-nus-umrining-uzunligi-va-uning-a-v/>
14. O'roqova N. (2024). Abdulla Oripov lirikasida ramziy-floristik obrazlar ifodasi. Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(3), 193-199.
15. O'roqova N. (2024). Sadridin ayniy uslubiga doir chizgilar. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 47(47). извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/12188](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/12188)
16. O'roqova N. O'zbek she'riyatida kapalak obrazi TALQINI //Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2024. – T. 47. – №. 47.
17. Yorievna U.N. ., & Ikhtiyar's K.N. . (2024). National Portrait in Otkir Hashimov's Stories. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(3), 831–837. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/1923>.



**"SCIENTIFIC REPORTS  
OF BUKHARA STATE  
UNIVERSITY"**

The journal was composed  
in the Editorial and  
Publishing Department of  
Bukhara State University.

**Editorial address:**

Bukhara, 200117  
Bukhara State University, main  
building, 2<sup>nd</sup> floor, room 219.  
Editorial and Publishing  
Department.  
[https://buxdu.uz/32-buxoro-  
davlat-universiteti-ilmiy-  
axboroti/131/131-buxoro-davlat-  
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)  
e-mail:  
[nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)

Printing was permitted  
28.09.2024 y. Paper format  
60x84,1/8. Printed in express  
printing method. Conditional  
printing plate – 35,30.  
Circulation 70. Order № 30.  
Price is negotiable.

Published in the printing house  
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC  
Address: Bukhara,  
K.Murtazayev street, 344